

KICHIK BIZNESGA KATTA IMKONIYATLAR YARATILMOQDA

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2015 yil 15 maydagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo’lidagi to’siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonining qabul qilinishi ayni sohada izchil amalga oshirilayotgan islohotlarni yana bir pog’ona yuqoriga ko’tardi. Buning natijasida ishbilarmonlik yo’lini tanlagan yoshlar safi ham kengaymoqda.

Aytish joizki, mazkur jarayonda bank-moliya muassasalari tizimi ham faol ishtirok etmoqdalar. Joylarda banklarni o’zlarining yaqin ko’makchisi va suyanchig’i deb bilayotgan tadbirkorlar imtiyozli kreditlar evaziga ko’zlagan maqsadlariga erishmoqdalar. Buni “Asaka” aksiyadorlik tijorat banki Andijon viloyat filialining tadbirkorlarni qo’llab-quvvatlash, mijozlar bilan ishlash borasidagi ilg’or tajribalari misolida ham ko’rish mumkin.

Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun

Bank filiali bilan viloyatdagi qo’shma korxonalar, mahalliy tadbirkorlar, lizing korxonalari o’rtasida ishonchli hamkorlik muhiti yaratilgan. Iqtisodiyotning turli sohalari uchun ajratiladigan kreditlar miqdori ortgani sayin bugunga kelib muassasa o’zining yuzlab doimiy mijozlariga ega bo’ldi.

Xususan, keyingi yillarda filial tomonidan mijozlar uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratishga alohida ahamiyat qaratilyapti. Ishbilarmonlar uchun alohida tadbirkorlar xonasi, plastik kartalar bilan ishlash bo’limida mijozlar uchun maxsus kutish zali, aholining kommunal to’lovlarini amalga oshirishlari uchun maxsus xodimlar biriktirilganligi, nafaqa olishga keluvchi pensionerlar uchun qishki va yozgi dam olish joylari shular jumlasidan. Bu kabi e’tibor tufayli aholining bankka bo’lgan ishonchi ortib bormoqda.

Masalan, 2016 yilning 1 aprel holatiga kredit portfeli hajmi 88,8 mlrd. so’mni tashkil etayotir. Uning 76 foizi uzoq muddatli kreditlarga to’g’ri keladi. Joriy yil birinchi choragida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 7,1 mlr.so’m miqdorida kreditlar ajratildi. Bu esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 baravarga ko’pdir.

Uzumini yengu, bog’ini ham surishtiring

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 21 dekabrda topshirig’iga asosan, respublikamizda uzumchilikni rivojlantirish, mavjud uzumzorlarning unumdorligini oshirish, mahsulotni qayta ishlash va eksport qilish bo’yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan edi. Aytish joizki, “Asaka” bank tomonidan mazkur sohani rivojlantirish borasida dadil qadamlar tashlandi.

Jumladan, bank filiali tomonidan ham uzumchilikka ixtisoslashgan agrofirmalar hamda fermer xo'jaliklari uchun 5 turdagi kreditlar taklif etilmoqda. Ayni paytda mazkur yo'nalish bo'yicha Andijon, Baliqchi, Bo'z, Izboskan, Paxtaobod va Ulug'nor tumanlaridagi fermer ho'jaliklariga xizmat ko'rsatilayotgan bo'lsa, kelajakda xizmat geografiyasi yanada kengaytirilishi rejalashtirilgan.

Yilning ayni davriga qadar uzumchilikni rivojlantirish maqsadida 20 dan ortiq kichik biznes subyektlariga 2,2 mlrd.so'mga yaqin miqdorda imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kreditlar ajratildi. Mijozlar uzoq muddatga berilgan mablag'lardan sohaga doir texnika va texnologiyalar sotib olish, zamonaviy sovetish kameralari qurish maqsadlarida foydalanishmoqda.

Mustahkam hamkorlik – yutuqlar kaliti

Halimjon Karimov, Baliqchi tumanidagi “Sadaf niholi” fermer xo'jaligi rahbari:

- Mustaqillik yillarida bank muassasalari biz kabi qishloq mulkdorlarini doimiy qo'llab-quvvatlab, rejalashtirgan loyihalarimizni hayotga tatbiq etishda yaqindan ko'mak berayotganidan xursandmiz.

Bizning ho'jaligimiz uzoq yillardan beri “Asaka” bank Andijon viloyat filiali mijozidir. Fermer xo'jaligimiz uzumchilik va bog'dorchilikka ixtisoslashgan bo'lib, 22,1 gektar yer maydoniga ega. Bog'bonlarimiz uzumning “Rizamat ota”, “Qora husayni”, “Husayni” singari sanoatbop navlarini yuqori agrotexnik qoidalar asosida parvarish qilmoqdalar. Bundan tashqari, olma, gilos, anor mevalaridan yuqori sifatli hosil yetishtirish borasida ham tajribalar to'plangan.

Bundan tashqari, fermer xo'jaligimizni ko'p tarmoqlilik asosida rivojlantirish maqsadida yo'laklarga yotqizish uchun 8 turdagi zamonaviy bruschatkalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yanmiz.

Xo'jaligimiz a'zolari bilan bamaslahat tarzda faoliyatimizni kengaytirishni va intensiv texnologiyaga asoslangan yangi tokzorlar barpo etishni niyat qildik. Bunda “Asaka” bank Andijon viloyat filialiga murojaat etganimizda, muassasa mutaxassislari bizni qo'llab-quvvatlab, kredit ajratilishiga yaqindan yordam berdilar. Ushbu moliyaviy madad tufayli faoliyatimizni bugungi kun talablari asosida tashkil etyapmiz. Eng muhimi, buning natijasida mahallamiz yoshlari uchun 10 nafar qo'shimcha yangi ish o'rinlari yaratildi.

Shuni quvonch bilan ayta olamanki, “Asaka” bank kreditlari biz kabi tadbirkorlik yo'lini tutganlarga imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ularning yordami bilan mulkdor bo'lib, jamiyatda o'z o'rnimizni topayapmiz. Shuning uchun ham bank xizmatidan ko'nghimiz to'q.

“Xo'jaobod trikotajiga xaridor bisyor”

Isroiljon Uraimov, “Al-Hakim” ko'p tarmoqli ishlab chiqarish firmasi rahbari:

- So'nggi yillarda nafaqat viloyatimizda, balki butun mamlakatimiz miqyosida “Xo'jaobod trikotaji” degan ibora paydo bo'ldi. Bu yurtimizda

tadbirkorlik faoliyatini ishonchli himoya qilish, ularni domiy qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan izchil islohotlar samarasi, albatta. Imkoniyatdan foydalangan hamyurtlarimiz o'zining mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yib, zamon talablariga javob beradigan trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga erishmoqdalar. Quvonarlisi, bugun Xo'jaobodda ana shunday xususiy korxonalar soni 50 tadan ortdi.

Bizning ko'p tarmoqli ishlab chiqarish firmamiz ayni kunda 16 xildagi trikotaj kiyim-kechaklari tayyorlanmoqda. Buyurtmachilarga bir oyda o'rtacha 404,6 ming donaga yaqin yoki 604,2 mln. so'mlik mahsulot etkazib berilmoqda. Buning qariyb 75 foizi eksportga yo'naltirilyapti.

“Asaka” bankning Andijon viloyat filiali bilan doimiy hamkorlik o'rnatganing ikkita muhim sababi bor: birinchisi, mutaxassislar tadbirkorning maqsad-muddaosini tezda anglashadi va kerak bo'lsa, yumushingizni osonlik bilan hal etish uchun maslahat va yo'l-yo'riqlarini ham berib borishadi. Ikkinchi muhim sababi esa kredit ajratishning paysalga solinmasligidir. Shuning uchun ham faoliyatimizni yo'lga qo'yganimizdan buyon aylanma mablag'larimizni to'ldirish maqsadida ikki marta bank kreditidan foydalandik. Mana shunday moliyaviy madad evaziga bugunga kelib ishchi-xodimlar sonini 120 nafarga yetkazdik.

Tadbirkorlik harakatining tayanch nuqtasi

Hayotillo Sobirov, “Ulug'nor invest teks” qo'shma korxonasi rahbari:

- Hozirgi kunda yurtimizda ishbilarmonlarning emin-erkin ishlashlari uchun to'la-to'kis sharoitlar yaratilgan. “Asaka” bank ham iqtisodiy islohotlar jarayonida faol qatnashib, tadbirkorlik harakatining tayanch nuqtalaridan biriga aylandi.

Korxonamiz tomonidan 14 xil trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Bir oyda o'rtacha 175,4 ming dona tayyor mahsulot mijozlarga yetkazib berilayotir. Shundan 460,0 mln. so'mga yaqin kiyim-kechaklar eksportga yo'naltiriladi. Zamonaviy va qulay sharoitlarga ega maskanda 225 nafar ishchi-xodim yayrab-yashnab mehnat qilmoqda.

Men bu fikrlarni maqtanish uchun aytmayapman. Yuqoridagi yutuqlarni qo'lga kiritishimizda “Asaka” bank Andijon viloyat filialining hissasi katta. Tadbirkorlikki qo'l o'rganimdan buyon “Asaka” bankdan uch marotaba yirik miqdorda kredit olib, faoliyatimizni kengaytirib, korxonamizni zamon talablari asosida jihozlashga erishdik. Bankning mijozlarga bo'lgan ishonch va e'tiboridan minnatdormiz.

Obodlik va bunyodkorlikka hissa

Shu kunlarda “Asaka” bank Andijon viloyat filiali jamoasi tevarak-atrof obodonchiligiga hissa qo'shish, xodimlar va mijozlar uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida bir qator xayrli yumushlarga qo'l urishgan. Eng avvalo, filial binosining qiyofasini zamon talablari asosida o'zgartirishga bo'lgan intilish e'tiborga molik. Filial hududida pensionerlar uchun shiypon shaklidagi yozgi suhbatgoh barpo etilgani mijozlarga har jihatdan ma'qul bo'lmoqda.

Bundan tashqari, filial tomonidan Andijon shahrining Navoiy shohko'chasi hududida 1000 dan ziyod daraxt ko'chatlari o'tqazildiki, bu ham bank jamoasining shaharning chiroyiga ko'rk qo'shish yo'lidagi sa'y-harakatlari mahsuli.

Xulosa o'rnida aytganda, yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bank-moliya tizimidagi o'sish va barqarorlik "Asaka" bankning Andijon viloyat filiali misolida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Eng avvalo, mijozlar ehtiyojining inobatga olinishi, bank tomonidan taqdim etilayotgan xizmat turlari sifatining bosqichma-bosqich oshirib borilayotgani yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga qilishi shubhasiz.